



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2726,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibida savdo xizmatlari (33,8 %), transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,3 %) ustunlikka ega.

2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	2 726,4	113,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	170,8	108,9
Moliyaviy xizmatlar	393,8	185,9
Transport xizmatlari	513,7	103,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	455,4	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	50,8	101,7
Savdo xizmatlari	921,0	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	85,8	101,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	118,5	116,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	51,2	108,5
Ijara xizmatlari	54,9	98,8
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	77,7	100,6
Shaxsiy xizmatlar	180,1	105,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	41,8	181,7
Boshqa xizmatlar	66,3	101,2




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (185,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (181,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (116,7 %) sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,5 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 514,2 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-aprel oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 580,1 mlrd. so'mga ko'paydi.

2019 yil yanvar-may oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (183,0 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (140,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (62,3 mlrd. so'mga), xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 172,3 mlrd. so'm, transport xizmatlari 14,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 60,5 mlrd. so'm.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (98,8 %) kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (100,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2019 yil yanvar-may oylarida uning ulushi 33,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), shaxsiy xizmatlar (6,6 %) egallaydi.

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozirgi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


2019 yil yanvar-may oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (88,7 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,1 % ni tashkil qiladi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 1,8 % ni tashkil etadi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-may oylarida uning ulushi 76,2 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-may oylarida
savdo xizmatlari tarkibi, %





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,7 % ni egallaydi.

2019 yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,2 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Radioeshittirish va teleko'rsatuv xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,2 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Telekommunikasiya xizmati - 96,2 %

Nashriyotchilik xizmati -
2,6 %

Axborot
sohasidagi
xizmatlar -
0,6 %

Kompyuter
programmalarini
ishlab chiqarish
xizmati -
0,3 %

Radioeshittirish
va teleko'rsatuv
xizmati - 0,2 %

Kino, videofilm
va televideniya
dasturlari
ishlab
chiqarish
xizmati - 0,1 %


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 393,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 185,9 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (98,3 %) tashkil etadi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 50,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 101,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,8 % ga to'g'ri keladi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 988,5 ming so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-may oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 111,0 ming so'mga oshdi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28

(71) 230-84-88